

## OQ OSTONA BOBO MAQBARASI ZIYORATGOHI TARIXI

Nazarov Nodirbek Qodir o'g'li

Oltinsoy tumani 54-umumiy o'rta ta'lim maktabining tarix fani o'qituvchisi

tel: +998-91-518-18-35.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14656995>

*Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati Uzun tumanidagi Oq-ostona bobo ziyoratgohi va uning paydo bo'lishi, bugungi kundagi odamlar hayotidagi o'rni haqida yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: Abu Xurayra, Oq Ostona, Qur'on oyatlari va duolar, ziyoratgoh, mushkulshod.*

### ИСТОРИЯ ПАЛОМНИЧЕСТВА В МАВЗЕЙ АК АСТОНА БАБА

*Аннотация. В данной статье описывается святыня Акастана Бабы в Узунском районе Сурхандарьинской области, ее внешний вид, а также роль в жизни людей сегодня.*

*Ключевые слова: Абу Хурайра, Белая Астана, коранические аяты и молитвы, святыня, мушикульшад.*

### HISTORY OF THE AQ ASTONA BABA MAUSEUM PILGRIMAGE

*Abstract. This article describes the shrine of Ak-astana Baba in Uzun District, Surkhandarya Region, its appearance, and its role in people's lives today.*

*Key words: Abu Khuraira, White Astana, Qur'anic verses and prayers, shrine, mushkulshad.*

Oq ostona maqbarasi Surxondaryo viloyatining shimoliy-sharqidagi Telpak-Chinor qishlog'i yonidagi Serharakat mahallasida joylashgan va Muhammad (s.a.v.) Payg'ambarimining sahabalari avliyo Abu Xurayra(602-679-yy)ning ko'milgan joyi, ziyoratgohi hisoblanadi. Mazkur ziyoratgoh musulmon olamida mashhur hisoblanadi. Ushbu Surxon daryosining chap qirg'og'ida Serharakat mahallasidagi Oq Ostona bobo qishlog'idagi ziyoratgohning kelib chiqishi esa mashhur sahoba, roviy, faqihlardan biri bo'lgan Abu Hurayra nomi bilan bog'liq Oq Ostona bobo ziyoratgohi (X-XI asrlar) joylashgan. Abu Hurayra kulti tarqalishi sabablari hozirgacha yaxshi o'rganilgan emas.

Har holda u hadis ilmining Markaziy Osiyoda VIII-IX asrlarda rivojlanishi va muvaffaqiyat qozonishi bilan bog'liqdir. Abu Hurayra (r.a.) milodiy 603 yilda Qizil dengiz yaqinidagi Tihomaning Banu Davs qabilasida tavallud topgan. Asl ismi ibn Abdushshams ibn Sahr Davsiy bo'lib, islomni qabul qilgandan keyin Abdurahmon ismini qabul qilgan. Abu Hurayra

so‘zi arab tilida “mushukcha egasi” ma’nosini anglatadi. Hadislarda bayon etilishicha, uning mushukchasi bo‘lgan, bir kuni mushukni tizasida o‘ynatayotganini ko‘rgan Payg‘ambarimiz uni “Abu Hurayra”, deb chaqirganlar. Shundan keyin bu nom o‘z ismidan ham mashhur bo‘lib ketgan.

Abu Hurayra (r.a.) islomni qabiladoshi Tufayl ibn Amir Davsiy (r.a.) da’vati natijasida qabul qildi. Hijratning oltinchi yiligacha o‘zining Davs qabilasida bo‘ldi. Keyin qavmidagi musulmonlar jamoasi bilan Madinaga keldi. Rasullohga yaqinroq bo‘lish maqsadida “ahli suffa” qatoridan joy oldi.

Rasulloh (s.a.v.) Abu Hurayra (r.a.)ga butun musulmon ummatiga tatiydigan juda ko‘p hikmatli so‘zлarni aytganlari mashhur. Abu Hurayra (r.a.) Abu Bakr (r.a.) xalifalik davrida dindan qaytgan – murtadlar bilan bo‘lgan janglarda ishtirok etgan. Xalifa Umar (r.a.) davrida Abu Hurayra (r.a.) Baxrayn voliysi, Usmon (r.a.) davrida Makka qozisi vazifalarida faoliyat olib borgan. Muoviya ibn Abu Sufyon (r.a.) davrida esa, Madina shahriga voliy etib saylangan. Uning asosiy mashhurligi esa tarixda eng ko‘p hadis rivoyat qilgan sahaba sifatida e’tirof etilishidir. U jami 5374ta hadisni rivoyat qilganlar.

Oq Ostona bobo (Abu Hurayra) maqbarasi X-XI asrlarda barpo etilgan. Bu bino kvadrat shaklda: tashqaridan 9x8,7 metr va ichkaridan 3,65x5,80 metrni tashkil etib, tuzilishidan kubga o‘xshash bo‘lib, o‘qsimon gumbaz bilan sayqallangan. XV asrdagi ta’mirlash ishlarida janubi-sharqiy devor qayta ta’mirlanib, qolgan uch tarafı xom g‘isht bilan terilgan, uning uch burchagidan (sharqiydan tashqari) minorachalar chiqarilib, gumbaz osti qismlari qayta tiklangan. 19-asr oxirida usta Xudoyberdi yarim shikastlangan gumbazni qayta tiklagan, binoning sharqiy tomonidan qo‘srimcha kirish xonasini barpo etilgan. Maqbara fasadida 3-3.5 metr balandlikdagi arkli kirish qismida o‘ng va chap burchakda yetti burchakli yulduz tasviriga o‘xshash diametri yarim metrlik ikkita rozet belgisi mavjud. Yetti burchakli yulduz shakli Markaziy Osiyo bezak san’atiga xos bo‘lmagan kompozitsiya hisoblanadi. Kirish qismidagi arkaning chap tomonidagi belgi markazida o‘simlik tasviri, o‘ng tomonidagisida esa quyosh tasviri tushurilgan. Oqostona bobo maqbarasidagi ramziy belgilar bir-biri bilan uyg‘un tarzda qilingan. Belgilar o‘zaro semantik tarzda bog‘langan. Kirish qismning o‘ng va chap tomonidagi belgilarni al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Forobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino asarlarida yozilgan Movaraunnahrning IX-XI asrlardagi belgilarning simentikasi asosida tahlil qilish kerak. Oqostona bobo maqbarasidagi ramziy belgilar Pugachenkova G.A., Hakimov Z.A., Borodina I.F. tomonidan o‘rganilgan.

2001—2002-yillar davomida amalga oshirilgan arxeologik qazishmalarga ko‘ra Oqostona bobo maqbarasining old devor yaqinidan yetti qabr aniqlangan. Oqostona bobo maqbarasiga

2005-yilda ramziy qabr toshi o‘rnatilgan. Mazkur qabr toshi sandiq shaklida yasalgan bo‘lib, kattaligi 215 x 55 x 45 x sm ni tashkil etadi. Qabrtosh ustiga Qur’on oyatlari va duolar yozilgan.

Ammo Oqostonona bobo haqida hech qanday lavha mavjud emas.

Mahalliy aholi buni garchi sahaba Abu Hurayraning qabri deb hisoblasa-da, aslda bu yerdagi qabr ramziy ma’noda qurilgan qabrdir, ya’ni bu yerga Abdurahmon ibn Saxr al-Davsiyning qabrida bir siqim tuproq keltirilib, ramziy qabr bunyod etilgan. Mahalliy aholi o’rtasida biror yomon kasallik tarqalgan paytlarda Abu Hurayraning xokidan olib kelingan keyn esa odamlar shu yerni loyidan badaniga surtishib shifo topishgan.

Maqbara X-XI asrlarga tegishli deb belgilangan. Kiraverishdagi o‘ng burchagida bir juft murakkab shakl bo‘lib, ularni yetti burchakli yulduz shaklida bajarilgan va shartli ravishda o‘ng - “erkaklarga tegishli” va chap - “ayollarga tegishli” belgilariga ajratilgan.

U yerga borib odamlar ehson qiladi, mahalliy aholi tilida uni bo‘mushkul deyiladi adabiy tilda mushkulkushod deyiladi. U yerga borib Abu Hurayraning nomiga qur’on tilovat qilishadi.

Qo‘y so‘yishadi kulcha-patir noz ne’matlar olib borishadi, o‘sha yerda yeb ichib duo qilib qaytishadi. Nimaiki katta orzulari amalga oshishiga ishonishadi oqostonona bobodan so‘rashadi.

Kattaroq qarzga kirib qolishsa yoki farzand talabida bo‘lsa borib quron tilovat qilinib ikki rakat namoz o‘qishib qaytishgan.

Bundan 20 – 30 yil oldin odamlar kechasi piyoda oyoq yalang ziyoratgohgacha borishgan va ikki rakat namoz o‘qishib nimaiki tilaklari bo‘sса so‘rashib qaytgan ekanlar. Bugungi kunda ham bu ziyoratgohdan ziyoratchilarning qadamlari arimaydi.

## REFERENCES

1. Annayev T. Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. Toshkent-1997. 33-bet
2. Qobilov E. “Surxon vohasi xo’jaligi” 2013-y.
3. T.Tafasov, V.Nafasova. O’zbek tili toponimlarining o’quv izohli lug’ati”.Toshkent-2007.24-b
4. G’.Abdurahmonov, S.Mutallibov. “Devoni lug’otut-turk”(index-lug’at). “Fan” nashriyoti-1967-yil. 54-bet
5. Jumayev, M. (2024). SURXONDARYO VILOYATIDAGI BA’ZI TOPONIMLAR VA ULARNING TAHLILI. Zamonaliv fan va tadqiqotlar , 3 (12), 953-955.
6. Erkin o‘g‘li, J. M. (2023). TOPONOMIKANING ASOSIY BO'LIMLARI VA ULARNING TARIX UCHUN AHAMIYATI. Better Intellektual tadqiqotlar , 9 (2), 121-125.

7. Jumayev, M. (2023). TARIXIY NOMLARNING MANBALARI VA TA'LIQNING ILMIY ASOSLARI. Zamonaviy fan va tadqiqotlar , 2 (10), 568-576.